

Xalqimiz roziligi uchun xizmat qilish – faoliyatimizning bosh mezoniga aylanishi kerak



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan buniyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 29-30 noyabr kunlari Xorazm viloyatida bo'ldi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentimiz Urganch shahridagi "Nihol" innovatsion maktabi faoliyati bilan tanishdi.

Joriy yil sentyabr oyida faoliyat boshlagan ushbu nodavlat ta'lim muassasasi boshlang'ich sinflarga mental arifmetikani o'rnatishga ixtisoslashgan. Bundan tashqari, bu yerda ingliz, rus tili fanlari chuqurlashtirilgan tarzda o'qitiladi. O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida shaxmat to'garagi tashkil etilgan.

Maktab qurilishiga 3 milliard 350 million so'm mablag' sarflangan bo'lib, hozirgi kunda ingliz tili, rus tili, mental arifmetika, maktabga tayyorlov, tez o'qish kabi o'quv kurslari faoliyat yuritmoqda.

Maktabda 19 ta fan xonasi, kutubxona, oshxona, sport zali, hamshira, o'qituvchilar xonalari, faollar zali mavjud.

Nodavlat ta'lim muassasasi 250 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, mavjud ehtiyojdan kelib chiqqan holda qo'shimcha 500 o'rinni yangi o'quv binosi barpo etish rejalashtirilmoqda. Shu bois maktab rahbariyati ta'lim muassasasi yonidan qo'shimcha yer maydoni va 6 milliard so'mlik imtiyozli kredit olishni mo'ljallamoqda. Yangi o'quv binosi foydalanishga topshirilsa, yana 50 ish o'rni tashkil etiladi.

Prezidentimiz maktabdagi sharoitlarni ko'zdan kechirar ekan, ta'lim muassasasining mazkur tashabbusini qo'llab-quvvatladi.

Bugungi kunda viloyatdagi 12 ta "Barkamol avlod" bolalar markazida 4 ming 700 dan ortiq o'quvchi 213 ta to'garakka jalb etilgan. Biroq ushbu markazlarda mental arifmetikani o'qitish bo'yicha mutaxassislar yo'q.

"Nihol" innovatsion maktabi ta'lim uslublarini "Barkamol avlod" bolalar markazlariga joriy etish o'quvchilarning intellektual qobiliyatini yanada oshirish imkonini beradi.

Avvalo, bolalarning ma?naviyatiga e?tibor berishimiz, ularni tariximizga qiziqtirishimiz kerak. Bolalarga bilimni turli o?yinlar orqali berish zarur, dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari mental arifmetikaga bo?lgan talabni e?tiborga olgan holda, uni o?qitish metodologiyasini takomillashtirish, o?quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini yuksaltirish, maktabni eng namunali ta?lim muassasalaridan biriga aylantirish yuzasidan zarur tavsiyalar berdi. Mutasaddilarga maktabga avtobus, o?quvchilarga planshet sovg?a qilish vazifasi topshirildi.

Vatan ozodligi yo?lida jonini fido qilgan dovyurak sarkarda Jaloliddin Manguberdi jasorati unutilmasdir. Uning sinmas irodasi, qudratiga g?animlar ham tahsin aytgan. Xorazmshohlar davlatining so?nggi vakili bo?lgan sarkardaning favqulodda iqtidori, buyuk jasoratiga hali-hamon jahon ahli hayrat bilan qaraydi. U haqda minglab maqolalar, kitoblar yozildi, qo?shiqlar kuylandi. Bugun bobomizning sharaflı nomi xalqımız qalbida ulug?lanadi. Mamlakatimizda ko?cha va xiyobonlarga sarkarda nomi berilgan, "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta?sis etilgan, Urganch shahrida haykali o?rnatalgan.

Prezidentimiz Urganch shahar markazida Al-Xorazmiy va Pahlavon Mahmud ko?chalari kesishmasida bunyod etiladigan Jaloliddin Manguberdi memorial bog?i loyihasi bilan tanishdi.

Shahar qiyofasi tubdan o?zgarmoqda. Tarixiy va zamonaviy an?analar uyg?unligida yangi binolar, uy-joylar barpo etilmoqda. Aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda buyuk ajdodlarimiz merosini abadiylashtirish, ulardan meros xislatlarni yoshlarimiz ongiga ham singdirish, ular qalbida vatanparvarlik tuyg?usini shakllantirishga alohida e?tibor qaratilmoqda.

Jaloliddin Manguberdi haykali buyuk bobomizning jasorati va shonu shavkatiga mos mahobatli bo?lishi zarurligini ta?kidladi.

Bu maydon tariximiz ko?zgusi, Xorazmning "tashrif qog?ozi" bo?lishi kerak. Shuning uchun tarixchi olimlar bilan maslahatlashib, maydonni chuqur mazmunli, betakror va muazzam ansamblga aylantirish zarur, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz bog? hududini kengaytirish va obodonlashtirish, bunda ko?proq tarixiylikni aks ettirish bo?yicha tavsiyalar berdi.

Shu yerda Urganch shahri markazini batafsil rejalashtirish, ko?p qavatli uy-joylar qurish, issiqlik va ichimlik suvi ta?minotini yaxshilashga doir loyihalari bo?yicha ham ma?lumot berildi.

Urganch shahrida xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining navbatdan tashqari

sessiyasi bo?lib o?tdi.

Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so?zladi.

Davlatimiz rahbari Xorazm viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, aholining ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash bo?yicha qator ishlar amalga oshirilayotganini qayd etdi.

Joriy yilda viloyatda 312 ta investitsiya loyihasi bajarilib, yangi korxonalar ishga tushirilgan. Yil yakuni bo?yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 16 foiz, eksport 22 foiz o?sishi kutilmoqda.

100 ta davlat va xususiy mактабгача та?lim muassasasi tashkil etilib, bolalarni bog?chalarga qamrab olish 33 foizga yetgan.

Xorazm uchun muhim bo?lgan elektr energiyasi va toza ichimlik suvi ta?minotini yaxshilash bo?yicha ham muayyan ishlar qilindi. 254 kilometr elektr, 456 kilometr suv tarmoqlarida qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

Joriy yilda xalqimizning hayotini tubdan yaxshilash maqsadida qabul qilingan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 27 ta qishloq va mahallada keng ko?lamli buniyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 14 mingta yakka tartibdagи uy va 75 ta ko?p qavatli turar joy, ko?p lab muhandislik tarmoqlari hamda ijtimoiy soha obyektlari ta?mirlandi. Ushbu ishlarga jami 236 milliard so?m mablag? sarflandi. Kelasi yili "Obod qishloq" dasturiga muvofiq, viloyatda 30 ta qishloqda va "Obod mahalla" dasturi doirasida 2 ta shaharning 6 ta mahallasida qurilish-ta?mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Prezidentimiz o?tgan davrda yaratilgan ish o?rinlari yetarli emasligi, viloyatda ishsizlik saqlanib qolayotganini ta?kidladi. Iqtisodiyot tarmoqlarini ko?paytirish, yangi sanoat korxonalari tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish, qishloq xo?jaligi, turizm va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali bandlik darajasini oshirish bo?yicha topshiriqlar berdi.

Sessiyada tashkiliy masala ko?rildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tavsiyasiga binoan Xorazm viloyati hokimi vazifasini vaqtincha bajarib kelayotgan Farhod Ermanov Xorazm viloyati hokimi etib tasdiqlandi.

Prezidentimiz viloyat rahbarlari Xorazm xalqi bilan bir tanu bir jon bo?lib, bugun belgilab berilgan vazifalarni to?la bajarishi, iqtisodiyotni rivojlantirish va odamlar hayotini yaxshilash bo?yicha kutilgan natijalarga erishishi zarurligini ta?kidladi.

Sessiyada so?zga chiqqanlar Prezidentimiz nutqida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan dolzarb vazifalarni bajarish yo?lida

viloyat ahli astoydil mehnat qiladi va ko'zlangan marralarga albatta erishadi, deb ta'kidladi.

Shu bilan Prezidentimizning Xorazm viloyatiga tashrifi yakunlandi.

O'zA